# 2020-yil yanvar-oktabr oylari davrida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent viloyatida jami **5042,6** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019-yilning mos davriga nisbatan **101,1 %**ni tashkil etdi.




## 2020-yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 4,1 mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 601 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilga nisbatan **112,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **126,4 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **124,9 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **37,0 %**) o‘sishidir.

## Toshkent viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|
| | 01.11.2019-yil | 01.11.2020-yil | |
| **Toshkent viloyati** | **3417** | **4018** | **117,6** |
| *shaharlar:* | | | |
| **Nurafshon** | 148 | 184 | 124,3 |
| **Olmaliq** | 191 | 220 | 115,2 |
| **Angren** | 271 | 321 | 118,5 |
| **Bekobod** | 165 | 181 | 109,7 |
| **Ohangaron** | 108 | 119 | 110,2 |
| **Chirchiq** | 258 | 312 | 120,9 |
| **Yangiyo'l** | 103 | 102 | 99,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| **Oqqo'rg'on** | 88 | 100 | 113,6 |
| **Ohangaron** | 67 | 78 | 116,4 |
| **Bekobod** | 108 | 110 | 101,9 |
| **Bo'stonliq** | 123 | 148 | 120,3 |
| **Bo'ka** | 159 | 186 | 116,9 |
| **Quyichirchiq** | 80 | 99 | 123,8 |
| **Zangiota** | 255 | 296 | 116,1 |
| **Yuqorichirchiq** | 193 | 228 | 118,1 |
| **Qibray** | 330 | 403 | 122,1 |
| **Parkent** | 98 | 104 | 106,1 |
| **Piskent** | 71 | 86 | 121,1 |
| **O'rtachirchiq** | 182 | 229 | 125,8 |
| **Chinoz** | 105 | 137 | 130,5 |
| **Yangiyo'l** | 158 | 190 | 120,3 |
| **Toshkent** | 156 | 185 | 118,6 |

## Toshkent viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.11.2020-yil holatiga ko’ra (*ulushi %* da)




***Ma‘lumot uchun**: Viloyatda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,0 %), Angren (8,0 %) va Chirchiq shaharlarida (7,8 %) qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1026,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **114,2 %** o'sish ko'rsatkiciga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 2,5 % punktga ko'payib, **20,4 %**ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da




***Ma'lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **21,0** %i yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan **129,6 %),** Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **14,0** %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **163,8** %) va O'rtachirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **5,0 %**i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **374,7 %**) tumanlariga to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,7 %**i to‘g‘ri kelib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **0,6 %** punktga ko’paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **101,9 %**ni tashkil etgan holda **3111,3** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **17,9** %ni tashkil etdi yoki **905,0** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **87,5** %ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

Ulushi, % da




Mlrd. so'm da




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **115,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi yoki 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **89,1 %**ga teng bo‘ldi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4927,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **121,3 %**ni tashkil etdi. Ularning viloyatidagi tutgan ulushi mos ravishda **2,3 %** va **97,7 %**ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da





## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020-yil yanvar-oktabr oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur‘ati, % da | Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **5042,6** | **101,1** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| **Nurafshon** | 208,2 | 98,3 | 4,1 |
| **Olmaliq** | 225,1 | 100,3 | 4,5 |
| **Angren** | 212,9 | 98,8 | 4,2 |
| **Bekobod** | 208,6 | 98,6 | 4,1 |
| **Ohangaron** | 174,9 | 101,1 | 3,5 |
| **Chirchiq** | 242,3 | 97,2 | 4,8 |
| **Yangiyo'l** | 126,7 | 99,8 | 2,5 |
| *tumanlar:* | | | |
| **Oqqo'rg'on** | 142,0 | 99,0 | 2,8 |
| **Ohangaron** | 139,6 | 99,2 | 2,8 |
| **Bekobod** | 141,0 | 100,3 | 2,8 |
| **Bo'stonliq** | 249,3 | 103,9 | 4,9 |
| **Bo'ka** | 133,6 | 97,4 | 2,7 |
| **Quyichirchiq** | 119,2 | 101,3 | 2,4 |
| **Zangiota** | 618,6 | 105,6 | 12,3 |
| **Yuqorichirchiq** | 331,8 | 101,3 | 6,6 |
| **Qibray** | 470,1 | 106,5 | 9,3 |
| **Parkent** | 288,7 | 100,9 | 5,7 |
| **Piskent** | 153,3 | 99,5 | 3,0 |
| **O'rtachirchiq** | 217,8 | 101,4 | 4,3 |
| **Chinoz** | 139,3 | 99,5 | 2,8 |
| **Yangiyo'l** | 187,5 | 89,4 | 3,7 |
| **Toshkent** | 312,1 | 105,2 | 6,2 |

## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020-yil yanvar-oktabr oylarida

### Eng yuqori hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Zangiota 618,6
2. Qibray 470,1
3. Yuqori Chirchiq 331,8



### Kichik hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Bo'ka 133,6
2. Yangiyo'l sh. 126,7
3. Quyi Chirchiq 119,2

**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**
**Aloqa telefoni: (71) 202-86-70**